
MEDALLAR MARAFONIDA 4-SONLI MAKTAB O'QUVCHILARI PESHQADAM!



Medallar marafonida 4-sonli maktab o'quvchilari peshqadam!

Xabaringiz bor, kuni kecha So'x tumani maktablari bitiruvchilariga oltin va kumush medallar taqdim etildi.

Agar medal olgan talabalar foizini tuman miqyosida oladigan bo'lsak, bunda 4-sonli UO'T maktabi bitiruvchilari peshadamlik qilishadi. Bu yili maktabni 10 (9+1) nafar talabalar oltin va kumush medallar bilan bitirdilar. Ikkinchi o'rinda 7-sonli UO'T maktabi talabalari - bu maktabdan 9 nafar bitiruvchilar oltin medal olishga muvassar bo'lishdi. 7 nafar oltin medal olgan bitiruvchilar bilan 11-sonli maktab talabalari 3-o'rinni egallashdi.

Shuningdek, 1 va 26-sonli UO'T maktabi bitiruvchilari 6 ta (5+1) medal olishga muvassar bo'lishdi.

Biroq, 14, 15, 21, 24, 27-sonli UO'T maktabi va 1-sonli IDUM bitiruvchilarida bu ko'rsatgich nolga teng.

Barcha bitiruvchilarimiz, ayniqsa medal olgan So'x farzandlariga kelajakda faqat muvaffaqiyatlar tilaymiz.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-06-26 16:11:23